

UMAR XAYYOMNING O'ZBEK TARJIMONLARI

*Ismoilova Madinaxon Maxamadjon qizi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Umar Xayyom ruboilarini o'zbek tiliga tarjima qilgan tarjimonlar va ularning tarjimalari bilan birga ,ruboylarning qisqacha tahlili keltirilgan bo'lib, maqola muallifi ularda o'z fikr va mulohazalarini bayon etgan. Shu bilan birga, Xayyomning to'rtliklari haqida ustoz mutaxassislarning fikrlari ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Umar Xayyom, ruboiy, tarjima, tarjimon, aruz vazni, barmoq vazni, fors tili, o'zbek tili.

Barchamizga ma'lumki, Umar Xayyom o'zining ruboilarini bilan dunyoga mashhur. Forsiyda yozilgan ushbu ruboilar necha yillardan buyon dunyo tillariga tarjima qilib kelinadi. Shu jumladan, o'zbek tili ham bundan mustasno emas. Umar Xayyom ruboilarini XX asrdan boshlab o'zbek tiliga tarjima qilina boshlagan. Ilk bora Abdurauf Fitrat "Fors shoiri Umar Xayyom" (1929) nomli risolasida Xayyomning 35 ta ruboysini nasriy tarjima qilgan. Keyinchalik Fattoh Abdullayev uning 14 ta ruboysini she'riy tarjima qilgan. Shundan so'ng esa uning ruboilarini eng ko'p qismini qariyb 500 ga yaqinini Shoislom Shomuhamedov, 600 dan oshiq ruboysini Ergash Ochilov, Jamol Kamol esa 50 ga yaqin ruboysini she'riy yo'lda tarjima qilganlar. Tarjimalarni birma bir o'qir ekanmiz har bir tarjimon ruboylarga o'z uslubi, so'z boyligi va o'z mahorati bilan yondashganini ko'rishimiz mumkin. Quyida Umar Xayyomning bitta ruboysini uch nafar tarjimon tomonidan qilingan tarjimasini qiyosiy tahlil qilishga harakat qilamiz.

<p><b>May ichsang oqil-u dono bilan ich, Yoki bir gul yuzli zebo bilan ich. Oz-oz ich, goh-goh ich ham yashirin ich, Ezma, rasvo bo'lma hayo bilan ich.</b></p>	<p>گربаде خорى با خر دمنдан خور يا با صنمى لاله رخى خندان خور بسىار مخور ورد مکن فاش مسار اندک خور و گاه خور و پنهان خر.</p>
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Umar Xayyom ruboilarini tarjimasining ko'p qismi Shoislom Shomuhamedovga nisbat beriladi. Ushbu tarjima aynan Shoislom Shomuhamedovga tegishli hisoblanadi Yuqorida keltirib o'tganimizdek, tarjimon uning 446 ta ruboysini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Tarjimon ruboyni 11 hijoli 6+5 turoqli barmoq vaznida tarjima qilgan bo'lib, ruboiy sodda va ravon o'qiladi. Ruboiy tarjimasida o'quvchiga tushunarli bo'lgan tildan foydalanilgan.

Ma'lumki, Umar Xayyom may kuychisi sifatida mashhur. Go'yo u ruboiylarida faqat mayni, mayparastlikni ta'rif etgan. Shoirning may bilan bog'liq timsollaridan holi biror-bir ruboysi yo'qligini hisobga olsak, ularning ma'nosini bilishimiz qanchalik muhimligi ma'lum bo'ladi. Ruboiylaridagi may obrazi ilohiy ishqqa ishora bo'lib, shoir Ollohga, borliqqa bo'lgan ishqini tarannum etmoqda.

**May ichsang agar munosib inson bilan ich,  
Yo yuzlari gul, lablari xandon bilan ich,  
Goh-goh ich-u, oz-ozdan ich-u, pinhon ich,  
Rad aylama, fosh bo'lma-yu imkon bilan ich.**

Yuqoridagi tarjima Ergash Ochilovga tegishli bo'lib, adabiyotdagi eng murakkab vazn hisoblangan aruz vaznida tarjima qilingan, Buni biz ruboyni murakkabroq o'qilishidan ham bilib olishimiz mumkin. Ushbu tarjima ma'no jihatidan, yuqoridagi tarjimadan deyarli farq qilmasa-da, o'qilishi xuddi g'azalning navosini beradi. Ruboiyda she'riyatda ko'p uchraydigan inversiya holatidan foydalanilgan, ya'ni original manbadagi 3-qator bilan 4-qator joylari ruboiy yanada ohangdor chiqishi uchun o'zgartirilgan.

Ma'lumki, ruboiy hazaj bahri axrab va axram vaznlarining 24 tarmog'ida yoziladi. Jumladan, keltirilgan ruboiy ham hazaj axrabi musamman vaznida bitilgan bo'lib, uni shu vaznning o'zida tarjima qilib, ruboyning mazmunini o'quvchiga yetkazibgina qolmay, shaklini ham saqlagan.

Jamol Kamol tarjimasida ham xuddi shunday shakl va mazmun birligiga erishilganini ko'ramiz,

**May ichsang, uni oqilu, dono bila ich,  
Yo nozli sanam, bir guli ra'no bila ich,  
Oz ich-u gah-gah ich-u pinhona simir,  
Ko'p ichma, ruju aylama, ma'no birla ich.**

Ushbu tarjima tarjimon Jamol Kamolga tegishli bo'lib, u ham ruboyni aruz vaznida tarjima qilgan, ma'no xuddi yuqori tarjimalardek berilgan, Ba'zi so'zlarda o'zgarishlar kuzatilgan. Yuqoridagi tarjimalardan farqli ravishda Jamol Kamol 3-qatordagi takroriy radif sifatida kelayotgan "ich" so'zini "simir" bilan o'zgartirib, ruboiyga yana-da o'zgacha ruh bag'ishlagan.

Tarjimalardagi yana bir ko'zga tashlanadigan tarafi shundaki, har bir tarjimon "**vard makon**" brikmasini 3 xil ma'noda tarjima qilganlar. SH. Shomuhamedovda ushbu so'z "ezma, rasvo bo'lma" ma'nosida, Ergash Ochilov tarjimasida "rad aylama" ma'nosida, Jamol Kamol tarjimasida esa "ruju aylama" ma'nosida keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Sh.Shomuhamedov tarjimasi mazmunan asliyatga muvofiq bo‘lsa-da, shaklan boshqa vaznda. Ruboiy soda va xalq tilida oson o‘qiladi, E.Ochilov va J.Kamol tarjimalari esa ruboiyning an’anaviy vaznida amalga oshirilgan bo‘lib, shakl va mazmun birligiga erishilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Эргаш Очилов. Жаҳон Шеърияти Дурдоналари, (Умар Хайём, Тириклик тилсими).—Т.:Ўзбекистон, 2012.
2. Э.Очилов \ Умар Хайём (Рисола); лойиҳа муаллифи ва масъул муҳаррир Қ.К.Ражабов. – Т.: “Abu matbuot-konsalt ” нашриёти, 2014. – 32 б.
3. Таржима санъати: Мақолалар тўплами /[Тўпловчи Т. Жўраев; Таҳрир ҳайъати:. F. Саломон (масъул Му-ҳаррир) ва бошк.].—К. 6.—Т.: Адабиёт ва санъат нашри-ёти, 1985.—264 б.
4. Шоислом Шомуҳамедов. Умар Хайём. Рубоийлар.—Т.: Шарқ, 2008.—128 б.